

KO'KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANGAN AYOLLARDA TIBBIY- BIOLOGIK VA IJTIMOY-GIGIYENIK XAVF OMILLARINING O'RNINI BAHOLASH

Parpiyeva Odinaxon Raxmanovna

Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti dotsenti v.b.

e.mail: parpieva.odinahon@yandex.ru, ORCID: 0000-0001-6223-103X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17492606>

Dolzarbligi. Ko'krak saratoni ayollar orasida saratonning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Saratonning ushbu turi mamlakatda saratonning boshqa turlari orasida o'lim sabablari bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ko'krak bezi saratoni tashxisi qo'yilgan bemorlar soni ikki yil avval 4407 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil boshida 4542 nafarni tashkil qilgan. Ko'krak bezi saratonidan yillik o'lim darajasi 2023 yil boshida 6,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil boshiga kelib 5,4% gacha kamaydi.

Ko'krak bezi saratonining profilaktikasi va erta tashxislash, zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarish va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirish va sog'lom ovqatlanish orqali aholi orasida kasallanish darajasini kamaytirish va uzoq-umr ko'rish darajasini oshirish imkonini beradi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot uchun 2017-2025 yillarda RIO va RIATM Farg'ona viloyat filialida ko'krak bezi saratoni bilan ro'yxatga olingan va davolangan 20 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan 160 nafar ayollar va ularning ma'lumotlari olindi. O'tkazilgan tadqiqotda ko'krak bezi saratoniga chalingan ayollarda tibbiy-biologik va ijtimoiy-gigiyenik xavf omillarini o'rganish maqsadida anketa-so'rovnoma o'tkazildi.

Tadqiqot ishida anketa-so'rovnoma, antropometrik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tibbiy-biologik omillardan hayz tsiklining kech (15-17 yoshda) boshlanishi, kech ona bo'lish, homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish, ko'krak bilan oziqlantirmaslik yoki qisqa muddat (3 oygacha) oziqlantirish, yondosh kasalliklarning (jinsiy a'zolarining yallig'lanishi, qalqonsimon bezning turli kasalliklari) mavjudligi, jinsiy hayotning noregulyar kechishi, tana vazni indeksi (TVI) ning me'yordan kattaligi, irsiy moyillik va ko'krakdagi travmalar ko'krak bezi saratoniga sabab bo'ladi. Bu holatda 6 ta xavf omillari muhim ahamiyatga egadir: bola tug'ilgan vaqtida onaning yoshi 30 dan katta bo'lishi ko'krak bezi saratoni xavfini 1,89 martaga, homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatilganda (2-4 marta abort qildirish) - 1,58 martaga, ko'krak bilan oziqlantirmaslik yoki oziqlantirish - 1.6, jinsiy a'zolarida yallig'lanish mavjudligi - 1.62, qalqonsimon bez kasalliklari mavjudligi - 2.05 martaga oshiradi.

Ijtimoiy-gigiyenik xavf omillaridan ayollarning ijtimoiy darajasining past bo'lishi ko'proq ahamiyatga egadir. Ko'krak bezi saratonining shakllanishida ba'zi bir ovqatlanish omillarining ahamiyati diqqatni tortadi. Muhim xavf omillari saralab olinayotganda, biz faqatgina nisbiy xavfning ortib ketgan kattaliklarini hisobga oldik. So'rovnomada qatnashgan bemor ayollarning ratsionida sut va sut mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sabzavot va

mevalar iste'molining yetishmasligi aniqlandi. Baliq mahsulotlari ayollarning kunlik ratsionida juda kam.

RIO va RIATM Farg'ona viloyat filialida ro'yxatga olingan barcha ko'krak bezi kasalliklaridan eng katta nisbiy ulushi 50-59 yoshga (30,8%) to'g'ri keldi. Tartib bo'yicha keyingi o'rinni 40-49 yoshda (26,7%), 30-39 yoshda (11,2%) bo'lsa, eng past nisbiy ulush 70 va undan katta yoshda (5,5 %), 20-29 yoshda (2,4 %) aniqlandi.

Xulosa. Yildan yilga ayollarning ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish yoshi yosharib bormoqda. Bizningcha, bu holat ularning mehnat faoliyati, tibbiy-biologik va ijtimoiy omillar: abortlar, ajrimlar, yanada sust bo'lgan reproduktiv faoliyat bilan: ya'ni tug'ilishning pasayishi va ko'krak bilan oziqlantirishning chegaralanishi va hatto to'xtatilishi bilan bog'liqdir. Ko'krak bezi patologiyasi bilan kasallanishning o'sib borishi ayollar salomatligining umumiy holatida, ularning turmush sifatida aks etmay qolmaydi.

Ko'krak bezi saratoniga chalingan ayollarning ovqat ratsioni yog'lar va uglevodlar miqdori yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra muvozanatlashmagan o'simlik yog'lari, biriktiruvchi to'qimalar, bir qator vitaminlar (A, B va S) va mineral moddalar miqdori bo'yicha fiziologik ehtiyojni qondirmaydi. Tekshirish natijasida o'z vaqtida ovqatlanmaslik, sutkaning tungi vaqtlarida ovqatlanish, yuqori kaloriyali oziq-ovqatlarni ko'p iste'mol qilish kabi ovqatlanish tartibi buzilishlari aniqlandi. Bu kamchiliklar ovqat ratsionini korrektsiya qilishni va biologik qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar bilan ratsionni boyitishni taqozo etadi.

Ko'krak bezi kasalliklarining profilaktikasini rejalashtirish va amalga oshirishda sog'lom turmush tarziga amal qilish, to'g'ri va ratsional ovqatlanish, ruhiy tushkunlik va stresslar, kichik tos sohasidagi yallig'lanish jarayonlari, ginekologik kasalliklar, qalqonsimon bez kasalliklari, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarini oldini olishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yazıcı, O., Özdemir, N. (2018). Meme Kansyerinde Epidemiyolojik Vyerilyer, Risk Faktörlyeri, Risk Azaltıcı Yaklaşımlar. Türkiye Kliniklyeri Tıbbi Onkoloji-Özel Konular, 11(1), 1-7.
2. Pisegna, J.; Xu, M.; Spees, C.; Krok-Schoen, J.L. Mental health-related quality of life is associated with diet quality among survivors of breast cancyer. *Support. Care Cancyer* 2021, 29, 2021-2028.
3. Brown, J.C.; Sarwyer, D.B.; Troxel, A.B.; Sturgeon, K.; DeMichele, A.M.; Denlingyer, C.S.; Schmitz, K.H. A randomized trial of exyercise and diet on health-related quality of life in survivors of breast cancyer with ovyerweight or obesity. *Cancyer* **2021**, 127, 3856-3864.
4. Parpiyeva O.R. -ASSESSMENT OF THE MAIN INDICATORS OF BREAST CANCER IN THE TERRITORIES OF THE FERGANA REGION//New Day in Medicine 4(78)2025 1121-1126 https://newdayworldmedicine.com/en/new_day_medicine/4-78-2025.
5. Normatova, S. A., & Parpiyeva, O. R. (2024). ASSESSMENT OF THE ROLE OF RISK FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF BREAST CANCER. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(21), 74-78.
6. Parpiyeva, O. (2023). Ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan ayollar ovqatlanishini korrektsiyalashni ilmiy asoslash (adabiyotlar tahlili). Евразийский журнал медицинских и

естественных наук, 3(12), 168-177.

7. Rakhmanovna, P. O. (2022). Nutrition and diet in breast cancer. *Texas Journal of Medical Science*, 7, 27-30.

8. Parpieva, O. R., Muydinova, E., & Safarova, G. (2021). Breast cancer. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 482-485.

9. Normatova Sh.A., & Parpiyeva O.R. (2023). AYOLLARDA KO'KRAK BEZI SARATONINI ERTA ANIQLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. В actacamu: Тт. 2 2023 (Выпуски 2181-4155, с. 116). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7924839>

10. Парпиева, О. Р., Эрматова, Г. А., Камалова, Д. А., & Якубов, А. (2024). КОРРЕЛЯЦИОННАЯ СВЯЗЬ МЕЖДУ ПИТАНИЕМ И СОСТОЯНИЕМ ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА. *JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY*, 7(6), 4-10.

11. Парпиева, О. Р. (2023). КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(3), 446-454.

12. Парпиева О. (2024). ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКОЕ РАСПРОСТРАНЕНИЕ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ НА ТЕРРИТОРИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 4(10), 281-288.

13. Parpiyeva Odinaxon Raxmanovna - Central Asian Medical University. (2025). FARG'ONA VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA KO'KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANISHNING STATISTIK TAHLILI. В ActaCAMU (Т. 11, Выпуск 1, сс. 157-164). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17181703>.

14. Normatova Sh.A., Parpiyeva O.R. (2024). KO'KRAK BEZI SARATONI BILAN OG'RIGAN BEMORLAR OVQATLANISH HOLATINI O'RGANISH NATIJALARI. Actacamu, 7(7), 30-33. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14131853>.

15. Parpiyeva, O. (2024). KO'KRAK BEZI SARATONINING FARG'ONA VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA EPIDEMIOLOGIK TARQALISHI. В EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES (Т. 4, Выпуск 10, сс. 281-288). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14038694>.

16. Parpiyeva, O. (2025). EPIDEMIOLOGICAL ANALYSIS OF BREAST CANCER IN THE FERGANA REGION. В INTERNATIONAL CONFERENCE ON HEALTH & TECHNOLOGY (Т. 1, Выпуск 1, сс. 46-48). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17348802>.